Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.512.133
FILOLOGIYA

O‘zbek tilida bolalar nutqining pragmalingvistik tadqiqi (To‘xtaxon Rahimova “Ekologiya-sog‘lik va farovonlik manbai” asari asosida)

Nurjahon Abdurahmonovna Payziyeva*
Namangan viloyati Chortoq tumani NamDU mustaqil tadqiqotchisi
✉ nurjahonpayziyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek tilida bolalar nutqining pragmalingvistik xususiyatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolalar nutqida muloqot maqsadi, nutqiy jarayon, kommunikativ niyat, pragmatik ma’no va til birliklarining ishlatilishi o‘rganiladi. Shuningdek, bolalar nutqining yoshga xos, lingvistik va pragmatik xususiyatlari, nutqiy aktlarning namoyon bo‘lishi hamda muloqot jarayonida pragmatik kompetensiyaning shakllanish omillariga to‘xtalib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari bolalar nutqining paragmalingvistik tomonlarini aniqlash, ularning kommunikativ vazifalari baholash hamda o‘zbek tilshunosligida bolalar pragmatikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar

bolalar nutqi, pragmatik kompetensiya, pragmalingvistika, kommunikativ, nutqiy akt, muloqot, kontekst, pragmatik ma’no, til rivoji.

DOI: 10.5281/zenodo.21743612

KIRISH

Bolalar nutqining pragmatik xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy tilshunosligimizning muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Pragmalingvistika til birliklarining real muloqot jarayonida qanday qo‘llanishini, nutqning maqsadi kommunikativ vaziyat so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishi bizga ma’lum. Bolalar nutqida esa ushbu jarayonlar yosh, psixologik rivojlanish va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Bolaning pragmatik kompetensiysi sekin-asta rivojlanadi. Avval bola oddiy ehtiyojlarini ifodalash uchun nutqdan foydalansa, voyaga yetgan sayin muloqot maqsadini tushunish, suhbatni davom ettirish, savol-javoblarda ishtirok etish, iltimos, rad etish, minnatdorchilik bildirish, salomlashish kabi pragmatik ko‘nikmalarni egallaydi. Shu sababli bolalar nutqini o‘rganishda til va tafakkur, psixologiya hamda pedagogika fanlarining aloqasi o‘zaro uyg‘unlashadi.

Amerikalik olim Charles W. Morris Pagmatikani belgilar bilan ulardan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi fan sifatida ta’riflaydi.[1] Bu berigan ta’rif bolalar nutqini pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilish uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

John L.Austin nutqiy aktlar nazariyasida har bir nutqiy birlik ma’lum bir harakatni bajarishni ta’kidlaydi.[2] Bola nutqida iltimos qilish, buyruq berish, kechirim so‘rash yoki savol berish kabi nutqiy aktlar sekin-asta rivojlanadi.

John R.Searle esa nutqiy aktlarning tasnifini ishlab chiqib kommunikativ (aloqaviy) maqsadlarning muhimligini ko‘rsatadi.[3] Bolalar nutqida ushbu aktlarning rivojlanishi pragmatik kompetensiyasi shakllanayot-

[1]Moris, C.W. Foundations of the Theory of Signs. Chicago: University of Chicago Press, 1938. P.30-34
[2]Austin J.L. How to Do Thingswith Words. Oxford: Oxford Univetsity Press, 1962. P.94
[3]Searle, J.R.Speech Acts:An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press,1969.P.24

ganini bildiradi. Biz bu jarayonga bolalar adabiyoti vakilasi To‘xtaxon Rahimova ijodi orqali yondashamiz.

“Ey biz mehribon ona tabiat! [4]–bu gap shoira To‘xtaxon Rahimovaning “Ona tabiat” she’ridan olingan bo‘ib, berilgan misralar orqali o‘quvchida tabiatga nisbatan yaqinlik, mehr va farzandlik minnatdorlik hissini uyg‘otish maqsad qilingan.

Sen uchun jon fido qilaman, albat![5]-Bu gap insonning tabiat oldidagi yuksak mas’uliyatini, uni himoya qilishga bo‘lgan qat’iy va’dasi va sodiqligini ifodalaydi. Bolajon tabiatni sevib u bilan muloqotga kirishyapti.

She’rning lingvopragmatikasi o‘quvchiga emotsional ta’sir o‘tkazish uchun maxsus til vositalaridan foydalanilgani bilan ifodalanadi:

-metaforik ko‘chimlar: tabiatga “Ona” (ona tabiat, mehribon ona) deb murojaat qilinishi tinglovchida unga nisbatan oilaviy mas’uliyat va himoya qilish instinktini uyg‘otadi.

-undov va xitoblar: “Ey bizga mehribon…” kabi murojaatlar nutqning pragmatik niyatini (diqqatni tortish, his-tuyg‘uni kuchaytirish) ifodalaydi.

-Buyruq-istak va qat’iyat modalligi: “yuqmasin faqat”, “qilaman albat” so‘zlari pragmatik jihatdan shunchaki axborot berma, o‘quvchini faol pozitsiyaga va qa’iy va’da berishga undaydi. Bu jarayon illokutiv maqsad deyiladi.

Shoiraning so‘z qo‘llash mahoratiga yana nazar soladigan bo‘lsak, quyidagi misralarni ham ko‘rib chiqamiz. “Men qishloqlik bolaman” she’rida xonishi har bir band oxirida takrorlanib, she’rning semantik o‘zagini tashkil etadi. Bu takrorning pragmatik maqsadi, qishloq hayoti bilan faxrlanish, o‘zlikni anglash va kitobxonda oddiy qishloq turmushiga nisbatan samimiy va iliq munosabat (simpatiya) uyg‘otishdir.

Sigir, buzoq, o‘t-o‘loq,

Huv qaynagan sho‘x buloq!

“Sigir, buzoq o‘t-o‘loq” bu so‘zlar qishloqning kundalik hayoti, tabiati va mehnat muhitini vizual (ko‘z oldiga keltirish) va emotsional jihatdan jonlantiradi. Ikkinchi misrada esa “huv” undovi va “sho‘x” epiteti buloqning toza va joshqin harakatini ko‘rsatib, matnda dinamik va quvnoq kayfiyat bag‘ishlaydi.

Olis adir, dalalar,

Mehridan men qonaman. Bu o‘ynoqi misralarda adir va dalaning “mehrga ega bo‘lishi”- tabiatning insoniylashtirish (personifikatsiya) orqali kitobxonga tabiat shunchaki yer maydoni emas, balki tarbiyachi va oziqlanturuvchi maskan ekanligini ta’kidlaydi.

Bag‘ri yam-yashil bahor

Quchog‘ida men shunqor[6]**.** Qishloqning “bag‘ri” va “quchog‘i” borligi aytilishi orqali uning xavfsiz, issiq va qadrdon vatan ekanligi pragmatik jihatdan ta’kidlanadi.

“Ochilgan gul-lolaman”. Bola o‘zini toza va beg‘ubor, go‘zal tabiat elementi (gul-lola) sifatida his qiladi. ***“Quvnayman, zavq olaman”*** “zavq olaman” fe’li matnning illokutiv kuchini (ya’ni muallif yetkazmoqchi bo‘lgan ichki energiyani) oshiradi va o‘quvchiga sof bolalik quvonchini ulashadi.

Shoira bolalarda nutqning pragmatik jihatdan rivojlanishi — bu nafaqat tabiiy til o‘zlashuviga, balki ijtimoiy aralashuv va tabiatni ham tarbiyachi deb hisoblaydi. Bu jarayonda tarbiyachi, o‘qituvchi va ota-onalarning faol, ongli ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, maktab yoshdagi bolalar uchun tabiatni asrash va ekologiyani himoya qilishni rivojlantirish kundalik muloqot muhitining sifati va kommunikativ faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv orqali shakllanadi. Pragmatik kompetensiya faqat til qoidalarini bilish emas, balki nutqiy vazifalarni to‘g‘ri bajarishdir. Bu esa yozuvchi va shoirlarimiz tomonidan yaratilgan nazm va nasrda bitilgan asarlarga ham bog‘liq.

Pragmatik kompetensiya bolaning nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri so‘zlashi, balki o‘z fikrini kontekstga, suhbatdoshga va vaziyatga mos holda ifoda eta olish, muloqotning maqsadini anglab, tegishli nutqiy vositalarni tanlay olish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarda tabiatga bo‘lgan muhabbat, ularning ijtimoiy integratsiyasi, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlash salohiyatini oshiradi. Ushbu tabiatni asrash va ekologik muammolarga

[4]To’xtaxon Rahimova “ekologiya-sog’lik va farovonlik manbai”, Namangan nashriyoti 2025-yil, 17-bet
[5]To’xtaxon Rahimova “ekologiya-sog’lik va farovonlik manbai”, Namangan nashriyoti 2025-yil, 17-bet
[6]To’xtaxon Rahimova “ekologiya-sog’lik va farovonlik manbai”, Namangan nashriyoti 2025-yil, 19-bet

bag‘ishlangan she’r va maqollar o‘quvchining faol ishtiroki hamda o‘qiyotgan badiiy asarlari, yodlayotgan she’rlari va muvofiqlashtirilgan pedagogik muhit va kontekstga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press
2. Usmonova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanish bosqichlari. // Til va adabiyot ta’limi, 2022, №3. – B. .)
3. Vigotskiy, L.S. (1983). Muloqot va tafakkur. Moskva: Pedagogika.
4. Moris, C.W. Foundations of the Theory of Signs. Chicago: University of Chicago Press, 1938.
5. Austin J.L. How to Do Thingswith Words. Oxford: Oxford Univetsity Press, 1962.
6. Searle, J.R.Speech Acts:An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press,1969.
7. To‘xtaxon Rahimova “Ekologiya-sog‘lik va farovonlik manbai”, Namangan nashriyoti 2025-yil.